

"MAHALLAMIZDA HAR KUNI TADBIR"



"MAHALLAMIZDA HAR KUNI TADBIR"

Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'iniga yo'lingiz tushsa, yoshlar ishtirokidagi turli tadbirlar ustidan chiqasiz va bunda albatta mahallaga tayinlangan yoshlar yetakchisining hissasi bor. Buning uchun mahalla yoshlari yetakchidan minnatdor va tashkillanayotgan har bir tadbirdagi faollik yuqoridagi fikrlarimiz isbotidir.

- Mahallamizdagi tashkil etilgan sun'iy qoplamali maydonda mini-futbol bo'yicha musobaqalarga start berildi. Bu musobaqalarda mahallamiz yoshlari, ayniqsa, uyushmagan yoshlar o'zlari jamoa tashkil etib, ishtirok etyapti. Maqsadimiz ozgina bo'lsa ham, yoshlarimizning madaniy dam olishi va ularning bo'sh vaqtini mazmunliroq o'tkazishiga ko'maklashish. Hali oldimizda niyatlarimiz ko'p va bu niyatlarni mahallamiz yoshlari bilan birgalikda amalga oshiramiz, - deydi mahallaning yoshlar yetakchisi Muhib Azamjonov.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-04 17:15:41